

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA AHOLIGA SAVDO
XIZMATLARINI KO‘RSATISH TARMOG‘IGA GEOGRAFIK TA‘RIF**

Turg‘anbaev D.N.,

Ajiniyoz nomidagi NDPI Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta‘lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15170707>

Kirish. Respublika iqtisodiyotini xo‘jalik jihatidan boshqarishning bozor iqtisodiyotiga o‘tkazish xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini joylashtirish va rivojlantirishning natijali yo‘llarini o‘ylab topishga majbur etadi. Xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini joylashtirish va rivojlantirishni hududiy tashkillashtirishni o‘rganishda aholi iste‘molining o‘rtacha jon boshiga to‘g‘ri keladigan asosiy kriteriyalari sifatida ko‘rish mumkin. Aholiga xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining rivojlanish qonuniyatlarini aniqlashda aholining ayrim tovar turlariga bo‘lgan ehtiyojlarini o‘zgarishi xususiyatlarini o‘rganish masalasi ahamiyatli masalalarning biri hisoblanadi. Lekin, shuni alohida aytish lozim, bu muammoni yechishga qaratilgan avvalgi tadqiqotlarda har bir region uchun xos iste‘molning spetsifikaviy sharoiti ko‘rib chiqilmagan.

Shuni alohida aytib o‘tish zarur, savdo, ishlab chiqarish va iste‘mol orasidagi bog‘lovchi bo‘g‘in bo‘lib xizmat qiladi. Shunga qarab, yangi Tovar turlarini ishlab chiqarish va eski mahsulotlarning sifatini yaxshilash iste‘mol strukturasi o‘zgarishiga olib keladi. Iste‘molchining iste‘mol xaridini oshirish va xizmat ko‘rsatishning buyog‘iga rivojlanishi ishlab chiqarishning qolgan tarmoqlarining kompleks rivojlanishiga yordam beradi.

Asosiy qism. Tadqiqotlarga qaraganda savdo xizmatini ko‘rsatishni tashkillashtirishda iste‘molchilarning tovar sotib olishiga ketgan vaqtini o‘rganish asosiy me‘zonlardan biri hisoblanadi.

Respublikada savdoning hududiy tashkillashtirilishini takomillashirishda savdo obyektlarining ratsional joylashishini amalga oshirish zarur. Bu aloqada tarmoq korxonalarini joylashtirish, uning qulayligining yaxshi sharoitlarini ta‘minlash hisobidan kelib chiqadi. Shuningdek, savdo tarmoqlarining konsentratsiyasini va ixtisoslashuvini rivojlantirish zarur. Bu savdo maydonlaridan foydalanishning natijaliligini bir necha barobar oshirishga va iste‘molchilarning tovarlarni sotib olishga ketadigan vaqtini behuda o‘tkazmaslikka imkoniyat beradi.

Shu nuqtai-nazardan savdo tarmoqlarini geografik jihatdan tadqiq qilish bizga ikki asosiy yo‘naslash bo‘yicha: savdo ijtimoiy qayta ishlab chiqarish jarayonining bo‘lagi sifatida va aholiga xizmat ko‘rsatishning bo‘lagi sifatida ko‘rinadi.

“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI”

Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi

Bu bozorning birinchisida savdoni, uning ijtimoiy qayta ishlab chiqarish sifatidagi o‘rni, uning joylashuvi va rivojlanishidagi ichki qonuniyatlariga qarab butun boshli tarmoq sifatida ko‘riladi.

Ikkinchidan bozor savdo, faqat uning aholiga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liqligi bo‘yicha ko‘rinadi.

Savdo shahobchalarinining joylashuvi o‘zining qonuniyatlariga ega. Uning rivojlanishi tovar aylanmasi strukturasi va ko‘lamining muvofiqligidan va aholi punktlari va aholi joylashuvi xarakteridan kelib chiqib aytish mumkin. Savdo tarmog‘ining quyi bo‘g‘inining, ayniqsa aholi punktlarining joylashuvi bilan bog‘liqligi yuqori. Bir tarafdin bu jihatlar birinchi navbatda savdo korxonalarining o‘lchami va tiplari orasida, ikkinchi aholi punktlaridagi odamlar soni va ularning funksional tiplari orasida ko‘rinadi. Shunga qarab ish doirasida savdo tarmoqlarining joylashuviga, shuningdek, xizmat ko‘rsatish zonasini o‘rnatishda kompleks geografik analizlar yurgazilgan.

Ichki shahar savdo xizmatini ko‘rsatishda rayonlashtirishda shaharlarning ba’zi bo‘limlarida funksional farqlarni hisobga oladi. Shunindek, har bir hududdagi ularning qurilishlari va loyihalash xususiyatlarini aniqlaydi. Savdo xizmatini ko‘rsatish zonasida shaharlarni differensiyatsiyalashda, konkret savdo komplekslarining tortilishida, rayonlarning cheklashiga ahamiyatli ta’sir etuvchi relef sharoitlari, har xil injenerlik qurilishlar, uning hududidagi yirik zvodlarning bo‘lishini hisobga olish zarur.

Iqtisodiy-geografik tadqiqotlarning obykti aniq aholi punktlaridagi va qishloq iste’mol jamoati tumanlardagi shahobchalari hisoblanadi. Qishloq savdo shahobchalarining geografik tadqiqi qilinishining xarakterli belgilaridan biri, uning kompleks tavsifi hisoblanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi aholiga savdo xizmatini ko‘rsatish davlat va xususiy tashkilotlar tarafidan amalga oshiriladi. Donalab sotish shahobchalarining katta bo‘lagi, iste’molchilar kooperatsiyasi tizimiga kiradi. Iste’molchilar kooperatsiyasining korxonalari asosan shahar joylarda joylashsadi, ular ortiqcha qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotilishini ta’minlaydi.

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 10421,9 mlrd. so‘mga yetdi. Uning nominal hajmi 1963,5 mlrd. so‘mga oshdi. Taqqoslama ekvivalentda o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 115,7 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni transport xizmatlari egallaydi. 2022-yil yanvar-dekabr oylarida bu xizmatlarning ulushi 27,2 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko‘rsatkichlar

“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI”

Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi

savdo xizmatlari (21,7 %), moliyaviy xizmatlar (21,4 %), shuningdek, ta’lim sohasidagi xizmatlar (6,5 %) bo‘yicha qayd etildi. 2022-yil yanvar-dekabr Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Me’morchilik, muhandislik izlanishlari sohasidagi xizmatlar hajmida unchalik katta bo‘lmagan o‘shish qayd etildi, ularning ulushi 1,1 % ni tashkil etdi.

Davlat savdo shahobchalari bir muncha kamroq tarqalgan va bu savdo vazirligi korxonalarida va har xil ishlab chiqarish tashkilotlarida, ishchilar bilan ta’minlash bo‘limlarida ko‘rinadi.

Savdo tarmoqlarining strukturasi bu korxonalarining har xil tiplarining o‘z-aro munosabati hisoblanadi.

Oziqaviy va nooziqaviy tovarlar savdo bo‘yicha korxonalar bir-biri bilan munosabatda bo‘ladi. Oziqaviy do‘konlarning eng qulay o‘z-aro munosabati oziqaviy tovarlarni iste’mol dinamikasi, shahar aholisining xissasi, savdo korxonalarining ishlab chiqarish quvvati va ba’zi tovarlarga iste’molchilar talabining ortishining o‘zgarishiga qarab aniqlanadi.

Mutaxassislarning obyektiv asosi ba’zi tovarlarga bo‘lgan ehtiyoj xususiyati, ayrim tovarlarni sotish spetsifikasi assortimentlar miqdorini orttirish hisoblanadi.

Savdo korxonalarida bir vaqtning o‘zida iste’molchilarga xizmat ko‘rsatishning yolg‘iz jarayonini ko‘rsatuvchi har xil texnologik jarayonlarni amalga oshiradi. Savdo tarmoqlarining bu strukturasi savdo xizmatini ko‘rsatish jarayonini tashkillashtirish xususiyatlarini xarakterlashi mumkin.

Bu xususiyatlar do‘konlarning texnik ta’minlash darajasining birdek emasligi, har xil loyihalash yechimlari va uning savdo zallari, administrativ texnikaviy maydonlarning har xilligi, do‘kon maydonining umumiy o‘lchamdagi iste’molchilarga qo‘shimcha xizmat ko‘rsatish uchun maydonlar keltirib chiqaradi.

Xulosa. Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududining kattaligi va tabiiy xususiyatlari ishlab chiqarishni ratsional rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Xalq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha ularning bor bo‘lgan resurslari, ishlab chiqarishning konsentratsiyalanishi va ixtisoslashuvning optimal variantlarini ishlab chiqish, mehnat resurslaridan ratsional foydalanish hisobidan tadbiq qilinishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Iskenderov A. B., Uzaqbaev Q. K., Sharibaev Am D. I. B. Turizm hám rekreaciyaliq geografiya” páninen oqıw-metodikaliq qollanba //Nókis-2019. – 2019. – T. 128.
2. Turdimambetov I. R., Uzaqbaev Q. K., Niyazimbetova G. CURRENT STATUS OF MEDICAL SERVICES IN THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN //Science and education in Karakalpakstan.–2020. – 2020. – T. 2. – C. 104-108.

“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI”

Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi

3. Turdimambetov I. R., Uzaqbaev Q. K., Oteuliev M. O. Territorial formation of the education system in improving the quality of life of the population of the Republic of Karakalpakstan //Экономика и социум. – 2020. – №. 12 (79). – С. 276-279.
4. Turdimambetov, I., Joldasov, A., Iskenderov, A., & Uzaqbaev, Q. (2022). Qaraqalpaqstanm ekonomikalıq ham sociallıq geografıyası.
5. Tursinbaevna, Gayrova Roza, and Uzaqbaev Qoblan Keunimjay Uli. "Territorial Location Of Medical Services To The Population In The Republic Of Karakalpakstan." *The American Journal of Applied sciences* 2.11 (2020): 28-33.
6. Узакбаев К. К. АҲОЛИГА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАЛАРИ ГЕОГРАФИЯСИДА ЯРАТИЛГАН НАЗАРИЯЛАР ТАҲЛИЛИ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 17. – С. 919-929.
7. Узакбаев К. К. АҲОЛИГА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАЛАРИНИ ҲУДУДИЙ ТАШКИЛЛАШТИРИШ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 14. – С. 233-240.
8. Узакбаев К.К. ҚИШЛОҚ ЖОЙЛАРДА АҲОЛИГА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАЛАРИНИ ҲУДУДИЙ ТАШКИЛ ЭТИШ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 17. – С. 845-857.
9. Утепова Г. Б., Узакбаев К. К. РОСТ НАСЕЛЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН И ЕГО ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ТЕРРИТОРИАЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ //Экономика и социум. – 2021. – №. 10 (89). – С. 1121-1130.
10. Eshimbetov U. et al. Territorial composition of agriculture in the Aral Sea Region of Uzbekistan //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 510. – С. 01040.
11. Ешимбетов У., Наурузбаева Г., Дальжанов К. Методические вопросы анализа и прогнозирования индустриального развития региона с учетом рационального использования минеральных ресурсов //Экономика и социум. – 2020. – №. 12 (79). – С. 532-540.
12. Раджапов М. Я., Умаров Е. К., Искендеров А. Б. Қорақалпоғистон худудининг географик ўрганилиш тарихи //Ўзбекистон география жамияти ахбороти. – Т. 22. – С. 74-76.
13. Radjarov M. et al. Qoraqalpogiston hududining tabiati va tabiiy boyliklarining geografik organilish tarixi //in Library. – 2021. – Т. 21. – №. 4. – С. 56-57.
14. Умаров, Е. К., Искендеров, А. Б., Раджапов, М. Я., & Айтуганова, А. К. Қорақалпоғистон Республикаси халқ хўжалигини худудий такомиллаштириш муаммолари. *Ўзбекистон География жамияти ахбороти*, 22, 57-59.
15. Iskenderov A. V. GEOGRAPHICAL LOCATION OF CONSTRUCTION RAW MATERIAL RESOURCES IN THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN //Экономика и социум. – 2023. – №. 10 (113)-2. – С. 150-153.
16. Iskenderov A. V. THE CURRENT STATE OF USE OF NATURAL GAS FIELDS IN THE ISLET REGION OF THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN //Экономика и социум. – 2023. – №. 11 (114)-2. – С. 139-142.
17. Искендеров А. Б., Раджапов М. Я., Жолдасов А. К. Қорақалпоғистон Республикасини географик районлаштиришда табиий ресурсларнинг ахамияти //Табиий ва иктисодий географик районлаштиришнинг долзарб муаммолари. Илмий-амалий конференция материаллари.-Т.: УЗМУ. – 2004. – С. 85-87.
18. Бекбулатова Г.А., Нурбаева А Основные факторы развития и размещения торгового обслуживания, "Экономика и социум" ISSN 2225-1545. №12(103) 2022.
19. Бекбулатова Г.А., Авезова Н. Региональные аспекты организации развития и размещения сфер торгового обслуживания. "Экономика и социум" ISSN 2225-1545. №12(103) 2022.
20. Бекбулатова Г.А., Наурузбаева Г.Т., Тажибаева Л. Проблемы и пути совершенствования сферы торгового обслуживания Республики Каракалпакстан // GEOGRAFIYA – KELAJAKKA NAZAR mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya, 2024.